| Исследование цифровой валюты центрального банка как новой формы денег .....                                                                    | 506 |
| <b>Якубова Шамшинур Шухратовна</b>                                                                                                             |     |
| Структуризация прибыли предприятия, факторы формирования и выявление резервов её повышения.....                                                | 513 |
| <b>Гафурова Азизахон Фатиховна</b>                                                                                                             |     |
| Xorijiy mamlakatlarda oilaviy migratsiya masalalari.....                                                                                       | 517 |
| <b>Kadirova Zulayho Abduhalimovna, Gaziyeva Sulxiya Saidmashrafovna</b>                                                                        |     |
| Ta'limda innovatsion tadbirkorlikning tarixiy rivojlanishini asosiy bosqichlari.....                                                           | 522 |
| <b>Madaminova Xusnidaxon Shuxratovna</b>                                                                                                       |     |
| Integratsiya jarayonida bog'dorchilikda klasterlarni barpo qilishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar va tarkibiy o'zgarishlarga ta'siri ..... | 526 |
| <b>Ergashov Ulug'bek Zoxidjonovich</b>                                                                                                         |     |
| Banklarning moliyaviy xavfsizligi va uning iqtisodiy xavfsizlikka ta'siri .....                                                                | 532 |
| <b>Mamatov Mamajan Axmadjonovich</b>                                                                                                           |     |
| Qishloq xo'jaligida pillachilik biznesini rivojlantirish istiqbollarini belgilash jarayonini ekonometrik modellashtirish.....                  | 535 |
| <b>Turgunov Odilbek Maripovich</b>                                                                                                             |     |
| Zamonaviy pul-kredit siyosatining iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi rolini baholash .....                                                      | 542 |
| <b>Mamanazarov Abdusamat Abdusaitovich</b>                                                                                                     |     |



# ZAMONAVIY PUL-KREDIT SIYOSATINING IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDAGI ROLINI BAHOLASH

**Mamanazarov Abdusamat Abdusaitovich**

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

Ta'lim sifatini nazorat qilish boshqarmasi boshlig'i

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada zamonaviy pul-kredit siyosatining iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi roli tahlil qilinadi. Maqolada pul-kredit siyosati orqali markaziy banklarning iqtisodiyotga ta'siri, inflyatsiyani nazorat qilish, valyuta barqarorligini saqlash va investitsiyalarni rag'batlantirish kabi masalalar ko'rib chiqiladi. Xorijiy va o'zbekistonlik olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar asosida pul-kredit siyosatining milliy va global iqtisodiyotga ta'siri baholanadi. Tadqiqot natijalari pul-kredit siyosatini yanada samarali qilish va iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash uchun amaliy tavsiyalar beradi.

**Kalit so'zlar:** makroiqtisodiy o'sish, import, monetar siyosat, inflyatsiya, konvertatsiya.

**Abstract:** This article analyzes the role of modern monetary policy in ensuring economic growth. The article examines the impact of central banks on the economy through monetary policy, inflation control, currency stability and investment promotion. The impact of the monetary policy on the national and global economy is evaluated based on the research conducted by foreign and Uzbek scientists. The research results provide practical recommendations to make monetary policy more effective and support economic growth.

**Key words:** macroeconomic growth, import, monetary policy, inflation, conversion.

**Аннотация:** В данной статье анализируется роль современной денежно-кредитной политики в обеспечении экономического роста. В статье рассматривается влияние центральных банков на экономику посредством денежно-кредитной политики, контроля над инфляцией, стабильности валюты и поощрения инвестиций. Влияние денежно-кредитной политики на национальную и мировую экономику оценивается на основе исследований, проводимых зарубежными и узбекскими учеными. Результаты исследования дают практические рекомендации по повышению эффективности денежно-кредитной политики и поддержке экономического роста.

**Ключевые слова:** макроэкономический рост, импорт, денежно-кредитная политика, инфляция, конверсия.

## KIRISH

Bugungi global iqtisodiy muhitda barqaror rivojlanishni ta'minlash har bir mamlakat uchun strategik vazifa hisoblanadi. Iqtisodiy o'sishning barqarorligi va izchilligi ko'p jihatdan samarali pul-kredit siyosatiga bog'liq bo'lib, bu siyosat milliy iqtisodiyotning asosiy parametrlarini boshqarish, inflyatsiyani nazorat qilish, investitsiyalarni rag'batlantirish va valyutaning barqarorligini ta'minlash kabi asosiy vazifalarni bajaradi. Ayniqsa, pandemiya va global geosiyosiy noaniqliklar davrida, markaziy banklar tomonidan olib borilayotgan pul-kredit siyosati iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Zamonaviy pul-kredit siyosati nafaqat qisqa muddatli iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, balki uzoq muddatli iqtisodiy o'sishning poydevorini yaratishga ham qaratilgan bo'lib, ushbu siyosatning samaradorligini baholash masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda. Ushbu maqola aynan zamonaviy pul-kredit siyosatining iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi roli va ahamiyatini baholashga qaratilgan bo'lib, milliy iqtisodiyotlar uchun muhim bo'lgan strategik yo'nalishlar va amaliy natijalarni tahlil qiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Pul-kredit siyosatining iqtisodiy o'sishga ta'siri haqidagi tadqiqotlar so'nggi yillarda keng miqyosda olib borilgan bo'lib, ushbu sohada xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan qator muhim ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Xususan, xorijlik olimlar orasida Mishkin va Bernanke kabi iqtisodchilar pul-kredit siyosatining iqtisodiy sikllarga



ta'sirini keng tahlil qilganlar. Mishkin o'z tadqiqotlarida pul-kredit siyosatining inflyatsiyani nazorat qilish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishdagi ahamiyatini ta'kidlaydi<sup>1</sup>. Bernanke esa, pul-kredit siyosati va iqtisodiy barqarorlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni chuqurroq o'rganib, markaziy banklar tomonidan qabul qilingan qarorlarning iqtisodiyotga uzoq muddatli ta'sirini ko'rsatadi<sup>2</sup>.

Mahalliy olimlarimiz ham ushbu masala yuzasidan qator tadqiqotlar o'tkazganlar. Masalan, Xasanov o'z tadqiqotlarida O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishida pul-kredit siyosatining o'rni va ahamiyatini tahlil qilib, inflyatsiyani nazorat qilish bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlarning samaradorligini baholaydi<sup>3</sup>. Shuningdek, Karimov o'z ishlarida O'zbekistonda pul-kredit siyosatining modernizatsiyasi va uning iqtisodiy o'sish bilan bog'liqligini o'rgangan<sup>4</sup>. Karimovning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, mamlakatda amalga oshirilgan pul-kredit siyosati iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

Xulosa qilib aytganda, xorijiy va o'zbekistonlik olimlarning tadqiqotlari zamonaviy pul-kredit siyosatining iqtisodiy o'sishdagi rolini har tomonlama ochib beradi. Bu boradagi ilmiy ishlar iqtisodiy siyosatning samaradorligini oshirish va uning milliy iqtisodiyotlarga ta'sirini chuqurroq anglash uchun muhim manba hisoblanadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Zamonaviy pul-kredit siyosatining iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi rolini baholash xossalarini o'rganishda umumiylikdan individuallikka va aksincha tartibda deduksion yoki induksion usullardan foydalanish samara bersa, abstrakt-mantiqiy fikrlash usuli esa jarayonni tizimli tahlil qilishda ahamiyatlidir. Ilmiy tahlil jarayonida ana shu ilmiy tadqiqot usullaridan, xususan, kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullarini keng foydalanildi.

## TAHLILLAR VA NATIJALAR

Mamlakatda ichki narxlar barqarorligi ta'minlanishi makroiqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikning kafolati bo'lib, iqtisodiy islohotlarni jadallashtirish va rivojlantirish dasturlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishda zaruriy sharoit hisoblanadi. Bunda inflyatsiyaning past va barqaror ko'rsatkichlari muvozanatli iqtisodiy o'sishni ta'minlash ishlab chiqarish raqobatbardoshligi va aholini yashash darajasini oshirishning muhim omili sanaladi. Shu nuqtayi nazardan narxlar o'sish sur'atlarining pasayishi va barqarorlashishi davlat iqtisodiy siyosatining asosiy maqsadlaridan biri bo'lishi kerak. Pul-kredit siyosati mamlakat yalpi ichki mahsulotining barqaror o'sishini ta'minlashda, milliy bank tizimidagi likvidlilik muammosini hal qilishda va inflatsiyani jilovlashda muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, dunyoning ko'plab mamlakatlarida moliyaviy inqiroz davom etayotgan hozirgi sharoitda pul-kredit siyosatini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Pul-kredit siyosatining makroiqtisodiy o'sish sur'atlarining barqarorligini ta'minlashda ahamiyati, eng avvalo, milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash va inflatsiya darajasini oshishiga yo'l qoymaslik hisoblanadi.

Milliy valyutaning qadsizlanish sur'atining baland ekanligi importning qimmatlashishiga olib kelishi mumkin va bu natijada investitsiya me'yorini pasayishida olib kelishi mumkin. O'z navbatida, investitsiya me'yorining pasayishi yuz berishi mumkin. Investitsiya me'yorining pasayishi yalpi ichki mahsulotning o'sish suratini pasayishiga va ayrim hollarda iqtisodiyotni retsessiya holatiga tushib qolishiga olib keladi. Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish sharoitida Markaziy bankning (Abdullayev. O'.2018) pul-kredit siyosati samaradorligini yanada oshirish mamlakatdagi pul bozorining qay darajada rivojlanganligiga bog'liqdir. Buning asosiy sababi shuki, Markaziy bankning ochiq bozor operatsiyalari, qayta moliyalashtirish siyosati hamda valyuta intervensiyasi mos ravishda bevosita pul bozorining tarkibi hisoblangan qisqa muddatli davlat qimmatli qog'ozlari bozori bilan banklararo kreditlar bozori hamda valyuta bozorida amalga oshirilib boriladi.

Aytish lozimki, Respublikamiz joriy valyuta bozorining likvidliligini ta'minlashda Markaziy bankning monetar siyosati dolzarb ahamiyat kasb etadi. Davlatimiz Markaziy bankning monetar siyosatini amalga oshirishda ham kredit siyosatidagi tamoyillarga amal qilinib, asosiy e'tiborni yuqori texnologik ishlab chiqarish salohiyatini shakllantirishga qaratilmoqda. So'nggi yillarda Respublikamiz tomonidan jalb qilinayotgan xorijiy investitsiya mablag'larini birinchi navbatda ishlab chiqarish sohasiga va muhim ijtimoiy sohalarga yo'naltirish kerak. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida konvertatsiyalashning butun og'irligini ushbu manbalar zimmasiga yuklash maqsadga muvofiq emasdir, sababi hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida katta valyuta tushumlari, asosan, yuqori texnologiyali eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishlar hisobiga ta'minlanmoqda. Shu sababli davlatimiz

1 Mishkin, F. S. (2007). "The Economics of Money, Banking, and Financial Markets". Pearson Education.

2 Bernanke, B. S. (2015). "The Courage to Act: A Memoir of a Crisis and Its Aftermath". W. W. Norton & Company.

3 Xasanov, U. (2021). "O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishida pul-kredit siyosatining roli". Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti Nashriyoti.

4 Karimov, M. (2019). "O'zbekistonda pul-kredit siyosatining modernizatsiyasi va uning iqtisodiy o'sish bilan bog'liqligi". O'zbekiston Milliy Universiteti Nashriyoti.



va Markaziy bankning mustaqillik yillari va bugungi kundagi siyosati aynan shunday eksport salohiyatini yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Asosiy xalq iste'mol qiladigan mollarni va eksportga mo'ljallangan mahsulotlarni ishlab chiqarayotgan, respublika iqtisodiyotining asosiy va yetakchi tarmoqlarida ustuvor loyihalarni amalga oshirishda ishtirok etayotgan tovar ishlab chiqaruvchilarimiz ham bunday huquqdan foydalanadilar. Boshqacha aytganda, valyuta resurslari birinchi navbatda ishlab chiqarish va texnologiyalar bilan shug'ullanayotgan korxonalarga berilmoqda. Aholining ish haqi va daromadlarini izchil va oldindan oshirib borishi hamda iste'mol bozorida narxlar indeksining asossiz tarzda o'sishining oldini olishga doir chora-tadbirlar esa el-yurtimizning farovonligini yuksaltirish, aholining xarid qobiliyatini oshirishni ko'zda tutadigan eng muhim ustuvor maqsadlarimizga to'la mos keladi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining monetar siyosati bir butunlikni tashkil etuvchi ikkita murakkab vazifani hal etishi – iqtisodiy o'sish jarayonlarini rivojlantirishga ko'maklashishi va inflyatsiyani nazorat ostida tutib turishi kerak. Iqtisodiy o'sish esa bosh vazifadir, albatta. Islohotlarni moliyaviy ta'minlash muammolarini muhokama qilish davomida masalalarning ikki yirik bloki ko'ndalang bo'lib turibdi. O'zining islohot modeliga ega bo'lgan O'zbekiston iqtisodiy o'sish sharoitlarini ham, inflyatsiya sur'atlarini keskin kamaytirish vazifasini ham nisbatan osonroq hal etishning uddasidan chiqmoqda deb aytish uchun barcha asoslar mavjud.

Respublikamizda kredit va valyuta mablag'lari isrof qilib yuborilayotgani yo'q. Balki ishlab chiqarish salohiyatini rivojlantirishga sarflanmoqda. Asosan, ishlab chiqarish ahamiyatiga molik bo'lgan obyektlar qurilishi hajmi keskin kengayib borayotganligi fikrimizni tasdiqlaydi. Moliyaviy resurslar yetishmayotgan sharoitda iqtisodiy o'sishni qisqa muddatlarda ta'minlash oson vazifa emas. Bu vazifa moliyaviy, shu jumladan, valyuta mablag'laridan foydalanishga oqilona yondashishni talab etadi. Buning uchun pulning iqtisodiyot tarkibini yangilash jarayoniga ta'sir qiladigan, binobarin, islohotlar muvaffaqiyatini ta'minlab ishlab chiqarish sohalariga sarflamoq lozim.


Bu o'rinda Markaziy bank mablag'larni bir yerga yig'ib, tijorat banklari tomonidan ularning eksportga mo'ljallangan hamda importning o'rnini bosadigan tarmoqlarga, dastlabki fondlar va texnologiyalarni yangilashga sarflanishi uchun muhim sharoit yaratishni o'zining asosiy vazifasi deb bilmog'i kerak. Ayniqsa, iqtisodiy o'sish vazifalarini hal etish uchun tijorat banklari tomonidan investitsiya kreditlari ajratilishidan tashqari valyuta mablag'laridan oqilona foydalanish ham kerak bo'ladi. Shu sababli mamlakatimiz o'z valyuta siyosatida ham kredit siyosati tamoyiliga amal qilmoqda. Ya'ni yuksak texnologiyali ishlab chiqarish salohiyatini shakllantirishga ustunlik bermoqda.

O'zbek so'mining hozirgi vaqtda cheklanayotgan ichki konvertatsiyaga egaligi va respublika valyuta bozorini o'z holatida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki monetar siyosatining maqsadi va yo'nalishlarining o'ziga xosligini yuzaga keltiradi. Bu o'ziga xoslik, eng avvalo, so'mning AQSH dollariga nisbatan kursini barqarorlashtirish va ichki valyuta bozorini rivojlantirish monetar siyosatning birlamchi vazifalaridan ekanligida ko'rinadi. Monetar siyosatning makroiqtisodiy o'sish sur'atlarining barqarorligini ta'minlashdagi muhimligi, asosan, milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash va inflyatsiya darajasining oshishiga yo'l qo'ymasligida ko'rinadi.

Milliy valyutaning qadrsizlanish sur'atining yuqori ekanligi importning qimmatlashishiga olib kelmoqda, bu esa investitsiya me'yorini pasayishida yuz berishi mumkin. O'z o'rnida investitsiya me'yorining kamayishi yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atini kamayishiga va ba'zi hollarda iqtisodiyotda retsessiya holatiga olib keladi. Milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning zamonaviy innovatsion rivojlantirish uchun dolzarb masaladir. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni<sup>5</sup> bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da ilg'or xalqaro tajribada qo'llaniladigan instrumentlardan foydalangan holda pul-kredit siyosatini takomillashtirish, valyutani tartibga solishda zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish va milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolishning zaruriy shartlaridan biri sifatida belgilab berilgan.

Monetar siyosatning makroiqtisodiy o'sish sur'atlarining barqarorligini ta'minlashdagi ahamiyati, avvalo, milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash va inflyatsiya darajasining oshishiga yo'l qo'ymaslikda namoyon bo'ladi. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatimizda joriy yilning 9 oyida YalMning real o'sishi 6,9% ni tashkil etdi. Qaydlarga ko'ra, 2022-yilda YalM hajmi qariyb 840 trillion so'm (74,2 milliard dollar) bo'lishi rejalashtirilgandi. Aholi jon boshiga YalM 23,8 million so'm (2,1 ming dollar) hajmida shakllanishi nazarda tutilgan. 2022-yilda YalM tarkibida qo'shilgan qiymat 92,6 foiz hamda mahsulotlar va eksport-import operatsiyalari hisobidan olingan sof soliqlar tushumi 7,4 foiz tashkil etishi prognoz qilinmoqda.


5 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni. lex.uz/docs/-3107036



→ YalM → Sanoat → Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi → Qurilish → Xizmatlar

1-rasm. YalM va uning komponentlarining real o'sishi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, kumulyativ foizda)<sup>6</sup>.

Joriy yilda qat'iy karantin chora-tadbirlarining kiritilmaganligi, vaktsinatsiya jarayonlarining tezlashtirilishi aholi va biznes subyektlarining pandemiyaga moslashgan holda o'z faoliyatlarini to'liq davom ettirishi natijasida xizmatlar sohasida 9 foizni, qurilish sohasida 4,5 foizni va qishloq xo'jaligi sohasida 4,2 foizni tashkil etdi. O'zbekistonda 2022-yilda yalpi ichki mahsulot 840 trillion so'mni (74,2 milliard dollar) tashkil etishi ko'zda tutilmoqda. Bu haqda 2022-yil uchun davlat byudjeti yuzasidan Hisob palatasi xulosasida ma'lum qilindi. Prognoz qilinayotgan yalpi ichki mahsulot miqdorining tarkibida qo'shilgan qiymat miqdori 778 trillion 153 milliard 600 million so'mni (YalMning 92,6 foizi) hamda mahsulotlar va eksport-import operatsiyalari hisobidan olingan sof soliqlar tushumi 61 trillion 865 milliard 900 million so'mni (7,4 foiz) tashkil etmoqda. Tarmoqlar kesimida qo'shilgan qiymatning eng katta ulushi (35,8 foiz) xizmatlar ko'rsatish sohasiga to'g'ri kelib, ushbu tarmoq bo'yicha yaratilgan qo'shilgan qiymat hajmi 300 trillion 351 milliard so'mni tashkil etishi rejalashtirilgan. Ushbu davrda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida 2,7 foizgacha pasayish kuzatildi. Mamlakatimizda iqtisodiy o'sish sur'atlari bosqichma-bosqich tiklanib borishi natijasida ishlab chiqarish manfiy tafovutining yopilishi prognoz qilinmoqda. Ta'kidlash joizki, 2018–2019-yillarda iqtisodiyotga katta hajmdagi moliyaviy resurslarning yo'naltirilishi natijasida ushbu yillarda ishlab chiqarishning amaldagi hajmi uning potensialidan ilgarilab, ishlab chiqarish tafovuti musbat darajada shakllangan edi.



2-rasm. YalM o'sish prognozi (tartibga solinadigan narxlar erkinlashtirilishi, foizda, real yillik o'sish)<sup>7</sup>.

Xususan, YalM o'sishi 2020-yilda asosiy ssenariydan 0,2 foizdan 5,2 foizga pastroq bo'lib, 2021-yil oxiriga kelib 5,6 foizga, 2023-yilda esa 6 foizga tezlashishi prognoz qilinmoqda. Bunda 2022-yilda YalM o'sish sur'atining yanada oshishi asosiy ssenariyga nisbatan ancha tezroq harakatga keladi. Shuningdek, ushbu

6 Manba: Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida pul-kredit siyosatining asosiy yo'nalishlari, 35-bet.

7 Manba: Markaziy bank hisob-kitoblari. Pul-kredit siyosati sharhi. 2-chorak, 26-b



shartlarda inflyatsiya dinamikasida ham avval biroz tezlashish kuzatilib, keyingi 2022-yildan boshlab boshlab asosiy ssenariydan ham pastroq darajada pasayishi kutilyapti. 2022-yil davomida 1-1,5 foizgacha kengayib, iqtisodiy o'sish o'zining potentsial darajasidan past bo'ladi. 2023-yildan boshlab YaIM tafovutining qisqarishi kuzatiladi va uning yopilishi (iqtisodiy o'sishning potentsial darajasida bo'lishi) iqtisodiy va investitsion faollikning tiklanish darajasiga bog'liq bo'ladi. YAIMning 2020-yil yakunlari bo'yicha real o'sishi 1-1,5 foizni, 2021-yilda 4,5-5,5 foizni tashkil etishi, shuningdek, 2022–2023-yillarda 5-6,5 foizgacha tezlashishi prognoz qilinmoqda. 2021–2022-yillarda iqtisodiy o'sish va investitsion faollikni qo'llab-quvvatlashning zaruriy shartlaridan biri mamlakatimizga to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiya hajmlarining oshishi hisoblanadi. Bunda 2020-yilda iqtisodiyotni fiskal qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilgan choralar va pul-kredit siyosatining nisbatan yumshatilishi ta'sirlari 2021-yilda ham iqtisodiy faollikni va yalpi iste'mol talabini rag'batlantiruvchi asosiy omillardan bo'lib qoladi. Umumiy fiskal defitsiti esa 2020-yildagi YAIMga nisbatan 7-7,3 foizdan 2021-yilda 4-4,5 foizga qisqarishi, 2022–2023-yillarda 2-3 foiz atrofida bo'lishi prognoz qilinmoqda. 2023-yildan makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun fiskal konsolidatsiya boshlanadi va fiskal taqchillikni YAIMga nisbatan 2023-yilda 3-4 foiz, 2024-yilda esa 2,0-2,5 foiz atrofida shakllanishi prognoz qilinmoqda.

1-jadval. O'zbekistonning asosiy savdo hamkorlarida iqtisodiyotning tiklanishi va iqtisodiy o'sish<sup>8</sup>.

| Davlatlar   | Pandemiyadan oldin YaIM o'sish darajasi(2019-yil) | 2020-yil | 2021-yil | Pandemiyagacha bo'lgan real YaIM o'sish darajasiga qaytishi (prognoz) | Emlangan aholi ulushi (20.07.2021 yil holatiga) |
|-------------|---------------------------------------------------|----------|----------|-----------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------|
| Qozog'iston | 4,5%                                              | -2,6%    | 3,2%     | 4,8%(2023yil)                                                         | 26%                                             |
| Xitoy       | 6,0%                                              | 2,3%     | 8,5%     | 8,5%(2021yil)                                                         | 43%                                             |
| Rossiya     | 2,0%                                              | -3,0%    | 3,2%     | 3,2%(2021yil)                                                         | 23%                                             |
| Turkiya     | 0,9%                                              | 1,8%     | 5,0%     | 1,8%(2020yil)                                                         | 46%                                             |

Jahon bankining iyun oyida yangilangan ma'lumotlariga ko'ra, 2021-yilda global iqtisodiyotning o'sish vositalari – bu Xitoy tomonidan kechikkan talabning yuzaga chiqishi va AQSh iqtisodiyotiga katta miqdordagi moliyaviy rag'batlanishlar bo'yicha umumiy talabning tiklanishi bo'ladi. Eng yuqori o'sib borish Xitoy iqtisodiyotida qayd etilishi kutilyapti – 8,5%(7-jadval). Jahon iqtisodiyotida (Pul-kredit sharhi 2021) 2020-yilda koronavirus pandemiyasi va qat'iy karantin cheklavlari kiritilishi ta'sirida yuzaga kelgan global iqtisodiy inqiroz sharoitida iqtisodiy faollikning keskin pasayishi, transchegaraviy aloqalarning cheklanishi va ta'minot zanjiridagi uzilishlar natijasida pul-kredit va soliq-byudjet siyosatlarining sezilarli darajada yumshatilishi kuzatildi. 2021-yilda esa pandemiya bilan bog'liq vaziyatning nisbatan yaxshilanishi, karantin choralari yumshatilishi, iqtisodiyot subyektlarining pandemiyaga moslashuv darajasining ortishi hisobiga iqtisodiy faollikning sezilarli darajada ortishiga xizmat qildi. Jahon iqtisodiyotida 2018-yilning ikkinchi choragida boshlanib qolgan faollikning pasayishi 2019-yilda ham davom etdi. O'tgan davr mobaynida o'sish tezligidagi pasayish "Brexit" atrofidagi noaniqliklarning saqlanib qolishi, dunyoning yetakchi iqtisodiyotlari o'rtasida yuqori savdo keskinligining kuchayishi hamda tovar-xomashyo moliya bozorlaridagi o'zgaruvchanlik natijasida yuzaga keldi. Natijada Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (XVJ) global iqtisodiy o'sish prognozi 2019-yil uchun 3 foizga qayta ko'rib chiqildi va bu 2009-yildan beri eng past ko'rsatkich (2019-yil aprel oyidagi prognoz 0,3 foiz bandga pastroq) hisoblanadi. 2020-yil davomida global iqtisodiy o'sish 3,4 foizga tiklanishi prognoz qilinmoqda (2019-yil aprel oyidagi prognozga 0,2 foiz bandga pastroq). Xalqaro valyuta jamg'armasining prognozlariga qaraganda, jahon iqtisodiyoti 2021-yilda 5,9 foizga, 2022-yilda 4,9 foizga, 2023–2024-yilda esa 3,5 foiz atrofida o'sishi kutilmoqda. Shuningdek, asosiy hamkor davlatlarda ham iqtisodiy faollikning jadal tiklanib borishi kutilayotgan bo'lib, savdo hamkorlarimizdagi yuqori o'sish sur'atlari, o'z vaqtida, tashqi talabni, ayniqsa, eksport tovarlarimizga bo'lgan talabni oshirish orqali mamlakatimiz iqtisodiy o'sishiga ta'sir ko'rsatadi. Markaziy bank xorijiy davlatlarning iqtisodiy darajasi dinamikasini, qarzdorlik qimmatli qog'ozlari (davlat obligatsiyalari) va kapital bozorlarini, milliy valyutalar kursini, asosiy eksporti amalga oshiriladigan – oltin, neft va tabiiy gaz narxlarini doimiy ravishda o'rganib boradi. Shu bilan birga, xorijiy markaziy banklarning yo'riqlari va kutilayotgan pul-kredit nazorati va chora-tadbirlarini nazorat qilish o'rta iqtisodli makroiqtisodiy prognozlarni ishlab chiqishda faol foydalaniladi.

8 Manba: Jahon iqtisodiy istiqbollari. Jahon banki. Iyun, 2021 yil. <https://www. enc. for. uz>



— Jahon iqtisodiyoti — Rivojlangan davlatlar — Rivojlanayotgan davlatlar

### 3-rasm. YaIMning o'sish sur'ati prognozlari (o'tgan yilga nisbatan, foizda)<sup>9</sup>.

Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (XVJ) global iqtisodiy o'sish prognozi 2019-yil uchun 3 foizga qayta ko'rib chiqildi va bu 2009-yildan buyon eng past ko'rsatkich (2019-yil aprel oyidagi prognozga 0,3 foiz bandga pastroq) hisoblanadi. 2020-yillarda o'sish sur'ati rivojlangan hamda rivojlanayotgan iqtisodiyotlar uchun guruhlar kesimida mos ravishda 1,7 va 3,9-4,6 foizlar oralig'ida bo'lishi prognoz qilinmoqda. Joriy yilda iqtisodiy faollikning kutilganidanda tezroq tiklanishi hisobiga XVJ va JB tomonidan jahon iqtisodiyoti va asosiy savdo hamkorlarimiz iqtisodiyotning o'sish sur'atlarini oshirish yuqori baza ta'sirida 2022-yil uchun ma'lum darajada pasaytirilgan.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib shuni tan olamizki, bizning tahlilimiz pul-kredit siyosati O'zbekistonda iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashda hal qiluvchi rol o'ynaganini ko'rsatgan bo'lsada, biz e'tiborni talab qiladigan ayrim muammolarni ham aniqladik. Moliya tizimining kapital bozorining rivojlanmaganligi va davom etayotgan dollarlashuvi pul-kredit siyosati chora-tadbirlarini o'tkazishga jiddiy to'siqlar tug'dirmoqda. Bundan tashqari, mamlakatning iqtisodiy tuzilmasi tovarlar narxlariga nisbatan sezgirlikni kamaytirish va raqobatbardoshlikni oshirish bo'yicha keyingi islohotlarni talab qiladi.

Bizning tadqiqotimiz pul-kredit siyosatining ishonchligini oshirishda institutsional mustaqillik, shaffoflik va boshqaruv muhimligini ta'kidlaydi. Markaziy bank mustaqilligini mustahkamlash va aholi bilan shaffof muloqotni ta'minlash O'zbekistonda pul-kredit siyosati samaradorligini oshirish yo'lidagi muhim qadamdir.

Ushbu tezisni yakunlar ekanmiz, pul-kredit siyosati O'zbekistonda iqtisodiy o'sish va barqarorlikni ta'minlashning kuchli vositasi ekanligi ayon bo'ladi. Biroq uning to'liq salohiyatini ro'yobga chiqarish aniqlangan muammolarni hal qilish va mustahkam hamda mustahkam moliyaviy tizimni yaratish bo'yicha doimiy harakatlarni talab qiladi.

Ushbu tadqiqot rivojlanayotgan mamlakatlarda pul-kredit siyosati va iqtisodiy o'sish bo'yicha mavjud adabiyotlarga hissa qo'shib, O'zbekistonning o'ziga xos konteksti haqida qimmatli fikrlarni beradi. Umid qilamizki, bizning xulosalarimiz siyosatchilar, akademiklar va boshqa manfaatdor tomonlarni mamlakatda barqaror iqtisodiy rivojlanishga erishish uchun samarali strategiyalarni ishlab chiqishdan xabardor qiladi.

Ushbu tadqiqot ma'lum bir kamchiliklarsiz emas, albatta. Keyingi tadqiqotlar O'zbekistondagi pul-kredit siyosati va iqtisodiy o'sishning o'ziga xos jihatlarni chuqurroq o'rganishi mumkin. Farovonroq va barqaror iqtisodiyot sari sayohat doimiy izlanish va fidoyilikni talab qiladi va bizning ishimiz ushbu umumiy intilish sari qadam bo'lib xizmat qiladi deb o'ylaymiz.

### Foydalanilga adabiyotlar ro'yxati

1. M.A. Mamatov-2021. "Iqtisodiy o'sish" Toshkent, "Innovatsion rivojlanish nashriyot matbaa uyi" 45-47-b.
2. Mahmudov N.M, Hakimov H. A -2019. "Makroiqtisodiy tahlil". Toshkent, TDIU nashriyoti.
3. Mishkin, F. S. (2007). "The Economics of Money, Banking, and Financial Markets". Pearson Education.
4. Bernanke, B. S. (2015). "The Courage to Act: A Memoir of a Crisis and Its Aftermath". W. W. Norton & Company.
5. Xasanov U. (2021). "O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishida pul-kredit siyosatining roli". Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti nashriyoti.

<sup>9</sup> Manba: Xalqaro valyuta jamg'armasi (WEO, October 2019) va Bloomberg sayti ma'lumotlari. <http://www.imf.org>.



6. Karimov M. (2019). "O'zbekistonda pul-kredit siyosatining modernizatsiyasi va uning iqtisodiy o'sish bilan bog'liqligi". O'zbekiston Milliy Universiteti Nashriyoti.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni. [lex.uz/docs/-3107036](http://lex.uz/docs/-3107036)
8. Моисеев С.Р.(2011) Денежно-кредитная политика: теория и практика: Учебное пособие. М.: Московская финансово-промышленная академия.с23
9. Виноградов Д.В., Дорошенко М-Е.(2009) Финансово-денежная экономика: Учебное пособие. –М.: ГУ ВШЭ, С. 360.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2024. № 8**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

